

O‘ZBEK XALQINIIG KELIB CHIQISHIDA IJTIMOIIY - SIYOSIY OMILLARNING O‘RNI

O‘tayev G‘.G‘

Toshkent tibbiyot akademiyasi o‘qituvchisi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada o‘zbek xalqi va uning ijtimoiy-siyosiy tarixi tog‘risida soz boradi.

АННОТАЦИЯ

В этой статья идет речь узбекском народе и его социальной и политической истории.

ANNOTATION

This article deals with the Uzbek people and their social and political history.

Har bir xalqning milliy shakllanishida uning davlatchiligi va davlatchilik an‘analari ham muhim rol o‘ynaydi. Shuning bilan birga har bir xalqning milliy shakllanish davomida boshdan kechirgan ijtimoiy-siyosiy jarayonlarning xalq tomonidan qay tarzda idrok etilishi yoki xalq ongiga qanchalik muhrlanib qolishi, shu xalqning millat sifatida shakllanishi bilan birga, milliy xarakter va mentalitetini ham shakllantirib boradi. Chunki inson o‘zini, o‘zi yashaydigan mamlakatning qonun-qoidalaridan tortib, u joylashgan hudud, urf-odat va qadriyatlar, rasm-rusmlar, din va ijtimoiy hayotning boshqa sohalari bilan belgilaydi. Endi u o‘zini millat sifatida his qilishi uchun yuqorida aytib o‘tgan belgilar uning milliy qiziqishlariga aylanishi kerak. Demak, bu yerda millatning qanchalik tez yoki uzoq vaqt davomida shakllanishi u boshidan o‘tkazgan ijtimoiy va siyosiy jarayonlarning ijobiy yoki salbiyligiga,

ta'sirchan yoki ta'sirchan emasligiga o'z-o'zidan bog'liqdir. Shunday ekan dastlab ajdodlarimiz ya'ni, o'zbek elati keyinchalik xalq sifatida shakllangan o'zbek xalqining milliy shakllanish kontekstida ro'y bergan ijtimoiy-siyosiy omillar uning milliy qiziqishlariga keskin ta'sir o'tkazgan. Bunga sabab bir tomondan, siyosiy kuchlar o'rtasidagi o'zaro ichki kurash va nizolar ikkinchi tomondan, esa Markaziy Osiyo hududiga qilingan bosqinchilik yurishlari edi. Bu ikki omil sabab mahalliy aholining milliy qiziqishlari o'zgarib turgan. Bu bir tomondan tabiiy, chunki har bir xalq dastlab etnos, elat, xalq, millat sifatida shakllanib boradi va bu shakllanish jarayoni ijtimoiy-siyosiy omillarsiz kechmaydi albatta. Ammo bu kabi omillar millat tarixida qanchalik ko'p kechsa uning shakllanishi shunchalik uzoq davom etadi.

Markaziy Osiyoga qilingan aksariyat bosqinchilik yurishlari va missionerlik harakatlariga mahalliy xalq tomonidan bo'lgan qarshiliklar bilan birga ma'naviy-mafkuraviy sohada ham kuchli monelik mavjud edi. Chunki mintaqa xalqlarida asrlar davomida saqlanib kelayotgan turli xil din va diniy ta'limotlar mavjud edi. Bu hoh zardushtiylik bo'lsin, hoh buddaviylik, hoh islom. Markaziy Osiyo xususan o'zbek xalqi tarixiga nazar tashlar ekanmiz, islom dini misolida bir dinning o'zi XIV-XV asrlar mobaynida unga bo'lgan turli xil yondoshuvlar natijasida ikki xil funktsiyani bajarganligini kuzatish mumkin. Bu ikki funktsiya mintaqada yuz bergan ikki buyuk uyg'onish davri bilan bog'liqdir. Ya'ni bu IX-X va XIV-XV asrlar bo'lib, aynan shu davrlarda bir tomondan o'zbek xalqi xalq sifatida shakllangan bo'lsa, ikkinchi tomondan, bu davrda milliy shakllanishdagi muhim ijtimoiy-siyosiy omillar yuz beradi. Bular ijtimoiy omillar sifatida ma'naviyat, din, mafkura, iqtisodiyot va boshqalar bo'lsa, siyosiy omillar sifatida esa mavjud siyosiy tuzum va davlat boshqaruvi davomida erishilgan ulkan yutuqlar edi. Aynan shu davrlarda milliy shakllanish uchun siyosiy, ham ijtimoiy muhit mavjud edi²⁵.

Sovet davri siyosatchilari va olimlari bu fikr va qarashlarni asosan o'zbek xalqining shakllanishi bilan bog'laganlar. Boshqa tarafdin esa, bu yerda imperiyaparastlik, shovinizm, kommunistik mafkura talablari ustalik bilan

²⁵ A.Asqarov O'zbek xalqining etnogenezi va etnik tarixi. Toshkent «Universitet» 2007. 102 bet.

uyg'unlashtiriladi. Shundan kelib chiqqan holda, yurtimiz mustaqillikka erishganidan so'ng o'zbek xalqi va uning davlatchilik tarixi olimlarimiz tomonidan keng o'rganilib tadqiq qilindi va bu hozir ham davom etmoqda. Yuqorida aytib o'tganimizdek, yurtimiz hududida tashkil topgan davlatlar turli xil ijtimoiy-siyosiy jarayonlar va iqtisodiy sabablarga ko'ra o'z mustaqilligini uzoq vaqt saqlab qola olmagan. Bunga sabab sifatida quyidagi ijtimoiy-siyosiy omillarni keltirish mumkin:

- o'troq aholining ijtimoiy-moddiy tabaqalarga bo'linishi;
- bir xil diniy e'tiqodga ega emasligi;
- etnos, til, hudud birligining bo'lmasligi;
- feodal munosabatlar avj olishi;
- siyosiy kuchlar va ular o'rtasidagi kurash;
- mavjud siyosiy tuzum bilan aholi o'rtasidagi nomutanosiblik va hokozolar.

Bu yerda aholining tabaqalarga bo'linishini quyidagicha izohlash mumkin: aholi mavjud siyosiy va iqtisodiy tuzum ta'siri va feodal munosabatlarning rivojlanishi natijasida yuqori, o'rta, quyi tabaqalarga bo'lingan. Bu tabaqalar bir tomondan, barcha davrlarda davlat va jamiyatga xos bo'lgan ijtimoiy qatlamlar sifatida yuzaga kelgan bo'lsa, ikkinchi tomondan, bu tabaqalar o'z qiziqishlari, maqsadi va manfaatlari doirasida shakllangan. Quyi tabaqa vakillari bundan mustasno albatta. Garchi u davrlarda o'zbek xalqi, xalq sifatida shakllanmagan bo'lsada, bu kabi ijtimoiy omillar ajdodlarimiz ongida vatanparvarlik, birdamlik, hamjihatlik kabi tuyg'ularni bo'g'ib qo'ygan. Buning natijasida o'zbek davlatchiligidagi siyosiy tarqoqlik davom etib, markazlashgan davlatni yuzaga kelishiga to'sqinlik qilib keladi. Aholining bir xil diniy e'tiqodga ega emasligi borasida to'xtaladigan bo'lsak, azal-azaldan yurtimiz hududida keng tarqalgan va islomgacha bo'lgan dinlar hamda diniy ta'limotlar bular buddaviylik, xristian, zardo'shtiylik, otashparastlik, moniylik, mazdakizm va boshqalarni aholi ongida e'tiqod manbaiga aylanganligi bir xil hukmron mafkura shakllanishiga yo'l qo'ymagan. Bir so'z bilan aytganda, mintaqada tarqalgan turli xil e'tiqodlar bir-biridan siyosiy, iqtisodiy va ma'naviy-madaniy dunyoqarash jihatidan

farqlanuvchi ijtimoiy guruxlarni shakllantirgan. Bu ijtimoiy guruxlar mavjud siyosiy va iqtisodiy tuzumga tobe sifatida xarakterlansada, millat va davlat rivojlanishidagi umumiy g'oya va mafkuralarga ega bo'lmagan. Qolaversa, o'tmishda yurtimiz hududidagi tashkil topgan yirik davlatlar (Amir Temurning markazlashgan davlatidan tashqari) markazlashgan davlat emasdi. Keyingi ijtimoiy omil bu - etnos, til, hudud birligi bo'lib, bu borada bundan oldingi bo'limda to'xtalib o'tgan edik. Shundan kelib chiqqan holda tarix va etnologiya sohasidagi olimlar yurtimiz hududida asosan ikki til-eroniy va turk tillarini keng tarqalganini hamda, yurtimiz hududida yashagan qabila va elatlar bitta etnosga tegishli bo'lmagan degan nazariyalarni ilgari suradi. Shunindek bu qabila va elatlar ikki xil ya'ni, ko'chmanchi va o'troq hayot tarzida yashagan ammo, ular madaniyat jihatdan bir-biridan keskin farqlangan. Shuning bilan birga o'zbek elati va uning ilk ajdodlari ma'lum bir hududda tarqalmagan. Yuqorida aytganimizdek aholining ko'chmanchi qismi asosan chorvadorlik bilan shug'ullangan hamda, doimiy ko'chib yurgan. Ular yashagan manzillardan topib o'rganilgan arxeologik materiallarga ko'ra, o'zbek elati va uning ilk ajdodlari Turkmanistonning janubiy, g'arbiy mintaqalarida, Tojikistonning bir qancha hududlarida, Orol dengizi bo'ylarida, janubi-sharqiy Yevropadan janubiy Sibirgacha bo'lgan kengliklarda yashaganlar. O'zbekiston zaminida sersuv daryolarning ko'pligi mintaqamizda dexqonchilikni rivojlanishiga sabab bo'lgan va buning natijasida o'troq aholi yanada o'troqlashib borgan.

Antropolog olimlar fikricha, bu ikki xil aholi o'rtasidagi asosiy bog'liqlik shundan iboratki, ular garchi boshqa-boshqa hududlarda yashab, urf-odat va madaniyat jihatdan farq qilsalar-da, ular bir xil antropologik tipga tegishli bo'lgan.

Ma'lumki, yurtimiz hududida shakllangan davlatchilik tarixida feodal munosabatlar ham rivojlangan. Bu hol deyarli barcha davlatlar jumladan, Xorazmshohlar davlati, Qoraxoniylar davlati, Somoniylar davlati, G'aznaviylar va boshqa davlatlarda mavjud edi. Misol tariqasida soliq turlarining ko'payishi va soliq

to'lovining oshishi, yer va suv taqsimotidagi islohotlar, hosil yig'ib olinish paytidagi davlat amaldorlari oddiy xalq o'rtasidagi munosabatlarning buzilishi va boshqa bir qancha omillarni keltirish mumkin. Bundan tashqari ichki parokandalik va siyosiy tarqoqlik tufayli mintaqamizda yuzaga kelgan yangi siyosiy kuchlarning maydonga chiqishi o'zaro ichki urushlarni keltirib chiqaradi. Bu esa o'z navbatida, mintaqani tashqi siyosiy kuchlardan himoya qilishda omma va harbiylarning immunitetini susaytiradi. Mintaqada Amir Temurning markazlashgan davlatidan tashqari barcha davlatlarda siyosiy barqarorlik bir maromda kechmagan. Doimiy ravishda davom etib kelgan ichki nizolar va siyosiy kuchlar o'rtasidagi kurash aholida hokimiyatga nisbatan norozilik kayfiyatini kuchaytirib kelgan. Bu esa ommani yagona mafkura atrofida birlashishiga to'sqinlik qilgan. Chunki mintaqaga islom dini kirib kelmagan paytlarda ham boshqa dinlar va diniy ta'limotlarda davlat va jamiyat rivoji to'g'risida fikr va g'oyalar mavjud edi.

Shuningdek, mintaqa arab xalifaligi tomonidan zabt etilganidan so'ng, islom ta'limoti asosida mafkuraviy jihatdan jamiyatdagi bir butunlikka erishilganligini hisobga olmaganda, bu galgi erkni yo'qotish ham ajdodlarimiz xotirasida unutilib bo'lmas ma'naviy-ruhiy azoblar va qiyinchiliklarga to'la davr sifatida muhrlangan. Madaniy taraqqiyot nuqtai-nazaridan ancha orqada bo'lgan arablarning mintaqada olib borgan istilochilik siyosati o'troq aholining ijtimoiy hayotiga juda katta salbiy ta'sir ko'rsatadi. Ammo shunday bo'lsa-da, yagona mafkura va ma'lum davrgacha arab tilini hisobga olmaganda bu davr fan va madaniyati mohiyatan turonliklarning sa'iy-harakatlari asosida rivojlana boshlagan. Islom dini mafkuraviy jihatdan mintaqa ijtimoiy-siyosiy hayotida muhim o'rin tutgan bo'lsa-da, arablar bosqini uzoq asrlardan beri saqlanib kelayotgan ma'naviyat va madaniyatga, urf-odat va qadriyatlarga katta ta'sir ko'rsatadi. Ammo islom dinining kirib kelishi mintaqa xalqlarining milliy birlik asosida birikishini tezda ta'minlamagan. Chunki Turon zaminida uzoq asrlar mobaynida e'tiqod manbaiga aylangan din va diniy ta'limotlar hamda ulardagi qadriyatlar aholi ongidan tezda unutilmagan.

ADABIYOTLAR

1. Alimova D.A., Golovonov A.A. O‘zbekiston mustabid sovet tuzumi davrida: siyosiy va mafkuraviy tazyiq oqibatlarini. 1917-1990 yillar. - Toshkent: O‘zbekiston, 2000. – 70 b.
2. Amir Temur va Temuriylar davrida madaniyat va san’at. (maqolalar to‘plami). – Toshkent: 1996.
3. Axmedov B. O‘zbek usuli. - Toshkent: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi, - “Nur”, 1992. - 150 b.
4. Axmedov B. Tarixdan saboqlar. - Toshkent: O‘qituvchi, 1994. – 432 b.